

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Axrorova	
«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini	317
Г.М.Хошимов	
Некоторые константы грамматики, касающиеся структурных особенностей гипотаксемы с адвербиальным компонентом темпоральности.....	322
N.Z.Abduraxmonova, O.O.Yulbarsov, G'.G'.Abduvaxobov	
Neologizm – kompyuter lingvistikasida tahlil birligi sifatida	329
M.Sharipova	
Ingliz tilida onomatopeik so'zlarning fonosemantik tahlili	334
A.O'.Abdullayev	
Ramzlarda shakl va mazmun munosabatlari.....	337
O'.A.Xudoynazarova	
Islom ta'limoti asosida shakllangan diniy barqaror birikmalar	344
F.R.Turg'unova	
Grammatik kompressiya orqali yangiliklar sarlavhalarini optimallashtirish. Strategiyalarni o'rganish va auditoriyani jalb qilish	349
M.A.Abduvaxobova	
Fransuz va o'zbek tillaridagi "Famille" – "Oila" semantik maydoniga doir	354
M.A.Kurbanov	
Muloqotda noverbal vositalar yordamida madaniyat, urf-odatlar va adab shakllarining ifoda etilishi.....	358
M.M.Kaxarova, Sh.B.Tolipova	
Nemis tilida og'zaki nutqni hamkorlik orqali rivojlantiruvchi mashq turlari va ulardan samarali foydalanish	364
M.Karimov	
"O'tkan kunlar" romanidagi o'xshatishning inglizcha tarjimalarda aks etish masalalari	368
X.P.Муртозоев	
Вижагиҳои савти ва услубии ҳодисаи афзоиш дар ашъори намояндагони сабки хурсонии адабиёти тоҷику форс.....	374
N.N.Odilova	
A comparative analysis of spellonyms in contemporary english and uzbek literature	384
M.B.Shamsiyeva	
Peyzaj matni murakkab sintaktik butunlik sifatida.....	388
I.T.Rustamov	
Ingliz va o'zbek folklor janr matnlarining semantik maydoni	392
K.Yu.Feryza	
Многоаспектная природа английских и русских провербиальных фразеовербализаторов концепта «head/голова/глава» и их лингвостилистические особенности	396
C.Э.Саидова	
Манзараи этники-диалекталии аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	401
G.A.Komilova	
Ingliz tilida siyosatchilar nutqida stilistik vositalarning nutq ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo'llanilishi	406
C.Ч.Маҷитова	
Антропонимҳо – ифодагари хислатҳои инсон дар ғазалиёти абдурахмони ҷомӣ.....	410
M.A.Matmusayeva	
Maktabgacha ta'limda o'yinlar- soha terminlari sifatida	419
Y.Sh.Shuxratova	
Sintaktik sathda o'xshatishlarning tabiatiga doir	423
H.H.Xoldorova	
Study of the concept of "Field" in modern linguistics	426
D.I.Mirzayeva	
Contextual-semantic analysis of fixed similes in english.....	429
K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tili va medialingvistika tavsifi.....	432



UO'K: 41+530.17+413

SINTAKTIK SATHDA O'XSHATISHLARNING TABIATIGA DOIR

О ПРИРОДЕ СРАВНЕНИЯ НА СИНТАКСИЧЕСКОМ УРОВНЕ

ON THE NATURE OF SIMILE AT THE SYNTACTIC LEVEL

Shuxratova Yulduzxon Shakarbek qizi 

Farg'ona davlat universiteti o'zbek tili yo'nalishi doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'xshatishning sintaktik sathdagi xususiyatlari, ularning badiiy tilning obrazlilik va ta'sirchanlik kabi muhim jihatlari ta'siri o'rganiladi. O'xshatishlar semantik, stilistik va sintaktik birliklar orqali ifodalanishi, shuningdek, bu munosabatni shakllantiruvchi asosiy elementlar (subyekt, etalon, asos va formal ko'rsatkichlar) batafsil tahlil qilinadi. Poetik obrazlarda o'xshatish vositalari tashqi va ichki tasvir usullari orqali aniqlanib, ularning universal lisoniy kategoriya sifatida o'rni yoritiladi. Shuningdek, maqolada o'xshatishning milliy va mantiqiy xususiyatlari ko'rsatilib, bunday vositalarning tildagi lingvistik ko'rinishlari ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot tilshunoslikning sintaksis sohasiga oid metod va usullarga asoslangan bo'lib, o'xshatish munosabatlari tizimli yondashuv orqali yoritishga qaratilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются особенности сравнений на синтаксическом уровне, их влияние на образность и выразительность художественного языка. Изучаются семантические, стилистические и синтаксические единицы, выражающие отношения сравнения, а также основные элементы (субъект, эталон, основа и формальные показатели). Анализируются внешние и внутренние способы изображения сравнений в поэтических образах, подчеркивается их универсальность как языковой категории. Исследование основывается на методах и подходах синтаксиса, а также направлено на системное описание природы сравнений.

Abstract

This article examines the characteristics of similes at the syntactic level and their impact on the imagery and expressiveness of artistic language. It explores the semantic, stylistic, and syntactic units used to express simile relations, along with their core components (subject, standard, basis, and formal indicators). External and internal means of depicting similes in poetic images are analyzed, highlighting their universality as a linguistic category. The study is based on syntactic methods and approaches, aiming to systematically describe the nature of similes.

Kalit so'zlar: o'xshatish, badiiy til, sintaktik vositalar, tashqi va ichki o'xshatish, sintaktik kategoriya, obrazlilik, poetik obraz.

Ключевые слова: сравнение, художественный язык, синтаксические средства, внешние и внутренние сравнения, синтаксическая категория, образность, поэтический образ.

Key words: simile, artistic language, syntactic devices, external and internal similes, syntactic category, imagery, poetic image.

KIRISH

Ma'lumki, biror bir narsani ikkinchi bir narsaga qiziqarli ravishda taqqoslash uchun biz o'xshatishdan foydalanamiz. "O'xshatish tasvir obyektini boshqa narsa-hodisaga o'xshatish orqali yorqin va bo'rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo'lib, bunda o'xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi[1]". O'xshatishlarni oddiy she'riy matnlardan tortib to'xalq qo'shiqlarining tarkibiga qadar uchratish mumkin. O'xshatishlar majoziy shaklning keng tarqalgan shakli sanalib ikki narsani qiyoslashda foydalaniladigan nutq figurasi hisoblanadi. Aslida o'xshatishlar badiiy tilning obrazlilik, badiyiligi va ta'sirchanligini oshirib berishda foydalaniladigan nutqiy shakl sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunos olim, professor N. Mahmudov[2] tilda mavjud bo'lgan o'xshatishlarni 4ta unsurdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Ular o'xshatiladigan narsa yoki subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidir. "Tildagi o'xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg'un o'xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo'lishini, ular

ko'p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo'llanish natijasi sifatida turg'unlashib, so'zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o'xshatish etalonining, ya'ni o'xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat'iy bog'liq bo'lishini ta'kidlaydi[3]. Nutqiy hodisa hisoblangan o'xshatishlar, asosan, ijtimoiy, tarixiy va adabiy jihatdan axborotlarni o'zida saqlash vazifasini ham bajaradi. Ma'lumki, so'z birikmalari bir-biri bilan o'zaro turli vosita va elementlar orqali ifodalanadi. So'z birikmalari tarkibidagi vositalar sintaktik aloqa hamda sintaktik vositalar orqali bog'lanishi mumkin. Bu turdagi bog'lanish narsa, belgi-xususiyat, voqea-hodisa, harakat-holatlar o'rtasidagi munosabat hisoblanadi. So'z birikmalari o'rtasidagi o'zaro munosabatning turli xil bo'lgan vosita hamda elementlar orqali ifodalanishi ularning turkumiga ham bog'liq hisoblanadi. "Sintaktik vositalarning ko'rinishlari: formal-grammatik vositalar, leksik-grammatik vositalar, intonatsion vositalardir. Bu kabi sintaktik vositalar faqat so'z birikmasi hosil qilishdagina emas, gap qurishda ham, anor va anjir ko'rinishidagi so'z qoliplarini yaratishda ham qo'llaniladi[4]". Mazkur maqolada sintaktik sathda o'xshatish vositalari xususida ayrim mulohazalarni keltirib o'tamiz. Tilshunos olim M.Mukarramov[5] o'xshatishning 3 ta asosdan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

- a) o'xshatiluvchi obyekt,
- b) o'xshovchi obraz,
- d) o'xshatish asosi.

D.Xudoyberganova o'xshatishlar haqida ilmiy izlanishlar olib borar ekan, olima o'xshatishlarni 4 ta komponentdan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sintaktik sath tarkibidagi uchraydigan o'xshatishlar badiiy va lisoniy hamda mantiqiy jihatdan bir butunlikni tashkil etadi. Sintaktik sathdagi o'xshatishlarni o'rganish va o'z navbatida ularni tahlilga tortishda yuqoridagi uch unsurlardan birortasini ham chetda qoldirmaslik lozimdir. Mazkur jihatlarining biror biri nazardan qoldirilsa, o'xshatish tabiatini to'liq tushuna olmagan bo'lamiz. Poetik obrazlarda o'xshatishning qo'llanilishini qaysi tartibda tasvir etishga ko'ra farqlab olish kerak. O'xshatishlar tarkibidagi tasvir vositalari, asosan, ikki xil bo'lishi mumkin. Ular tashqi hamda ichki tasvir vositalaridir. O'xshatish, asosan, tashqi tasvirga urg'u berganda tashqi ta'sir a'zolari orqali ta'riflanadi. Ichki tasvir vositalaridan foydalanilganda o'xshatishlar ichki olam orqali tasvirlashga harakat qilinadi.

Bir nafas boshingni ko'targin-u boq,
Yer yuzida ajib viqor va nufus.
Sening o'zing **kabi** xushchan va quvnoq,
Xushfe'l bo'lib kelmish tuprog'ingga kuz.

(A.Oripov "O'zbekistonda kuz")

Mazkur to'rtlikda o'xshatishni yaqqol ko'zga tashlanishiga asos bo'layotgan birlik **kabi** ko'makchisidir. Ko'makchi orqali o'xshatish munosabati amalga oshirilmoqda. Aslida o'xshatish munosabati nafaqat leksik birliklar, balki tildagi turli affikslar, morfologik hamda sintaktik birliklar orqali ham voqelanadi. Tilshunos olim M.I.Cheremisina ta'kidlaganidek, "o'xshatish bu sintaktik kategoriyadir va uning tadqiqi sintaksis doirasida olib borilishi kerak. O'xshatish tilshunoslikning shu bo'limi metodlari va usullari vositasida o'rganilishi hamda sintaksisning maxsus tili, ya'ni uning terminlari va tushunchalari orqali tavsiflanishi lozimdir[6]". O'xshatish munosabati ko'p qirrali va barcha tillarda mavjud universal kategoriya [7] bo'lib, u turli sintaktik birliklar orqali ham ifodalanadi[8]. Xususan, o'xshatish munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalar o'ziga xos mazmunga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

O'xshatishning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning semantik-stilistik xususiyatlarini yoritish va o'xshatish munosabati alohida bir tizim ekanligini yotirib berish mazkur maqolaning oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biridir. O'xshatish munosabatini hosil qilishda o'xshatish subyekti hamda o'xshatish etaloni orqali ham hosil qilinishi mumkin. Lisoniy vositalar hisoblangan leksik, morfologik hamda sintaktik birliklar yordami bilan ham o'xshatish munosabatini yuzaga keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudov N. O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi. // Til va adabiyot ta'limi. 2019 yil, 2-son.
2. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
3. Некрасова Н. Сравнения общезыкового типа в аспекте сопоставительного анализа художественных диалектов // Лингвистика и поэтика. –М.: Наука, 1979. – С. 225.
4. Фуломов А.Ф., Асқарова М.А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. Ўқитувчи нашриёти, 1965.
5. Abdalimova Shahlo. O'xshatish vositalarining lingvistik xususiyatlari (O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari misolida). // Solution of social problems in management and economy. Toshkent, 2022.
6. Rajapova Malika. Allegorical Means Specific to Oral Speech, European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612. Page 85-87.
7. Shuxratova Y., & Mamajonov A. (2022). O 'XSHATISH MUNOSABATINI IFODALOVCHI MORFOLOGIK VOSITALAR. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 38-38.
8. Yulduzkhon, S. (2023, September). SYNTACTIC VALENCE AND SYNTACTIC RELATION. In *E Conference Zone* (pp. 4-6).